Qayta ishlangan materiallardan poliefirsulfon ishlab chiqarildi

// 11.03.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qayta-ishlangan-materiallardan-poliefirsulfon-ishlab-chiqari



Germaniyaning BASF kimyoviy konserni qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan poliefirsulfonni taqdim etdi.

Kompaniya xabariga ko'ra, yangi termoplastik o‘zining analoglari bilan bir xil xususiyatlarga ya’ni, unumdor va mashina yordamida ishlov berishga yaroqli.

Poliefirsulfon (PES) yuqori termal, elektr va mexanik xususiyatlarga ega bo‘lgan amorf polimerdir. PES avtomobil sanoatida eruvchan himoyalagichlar (predoxranitel), membranalar ishlab chiqarish uchun foydalaniladi va elektronikada ular integral mikrosxemalar uchun himoya tovoqlari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Ulardan shuningdek, yopishmaydigan oshxona idishlari va tibbiy asboblarni, shuningdek, ko‘p foydalaniladigan idishlar ishlab chiqarish mumkin.

BASF vakillarining ta’kidlashicha, yangi PES ishlab chiqarishda poliefirsulfon ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan qazib olinadigan xom ashyoning 50% biotsirkulyatsion xom ashyo bilan almashtiriladi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati